

“TANQID, MUNAQqid VA HOZIRGI ADABIY JARAYON”  
(UMARALI NORMATOV) NOMLI SUHBAT HAQIDA

Sevara Bekchanova

UrDU o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15707188>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada adabiyotimiz rivojiga o‘zining kata hissasini qo‘sghan adabiyotshunos olim, munaqqid, professor Umarali Normatovning “Tafakkur yog‘dusi” asaridagi suhbatlaridan biri haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Modern adabiyot, hozirgi adabiy jarayon, ko‘ngil she’riyati, davr poeziyasi.

**Abstract.** This article discusses one of the conversations in the work “Tafakkur yog‘dusi” by Umarali Normatova literary sholar, critic, and professor who made a significant contribution to the devolopement of our literature.

**Keywords:** Modern literature, current literary process, poetry of the heart, poetry of the period.

Adabiyotshunoslikda ilmiy-nazariy muammolarni yoritishda, ijodkorlarning ijod laboratoriyasiga kirib, badiiy ijod jarayoni va sirlaridan voqif bo‘lish, uni kitobxonga ko‘rsatishda adabiy suhbatning imkoniyati katta. Bunday suhbatlar adabiyotning, adabiy tanqidning o‘sishiga, taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan olib borilgan bahslar muammolarning qaysidir jihatini yoritishga yordam beradi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov yangi asr o‘zbek ijodkorlarini fundamental tadqiq qilgan zabardast olimlar qatorida turadi. Aynan O‘zbek adabiyotida kam uchraydigan munaqqid sifatida kitobxonga maktub yozgan zabardast olimlardan biri hamdir. Har bir ijodkorning asari, tadqiqotida uning dunyoqarashi, ma’naviyati ko‘rinadi. Bu dunyoqarash ijodkorning ma’naviyati, hayot tarzi, kishilar bilan muomala va munosabatida ham namoyon bo‘ladi. Aslini olganda ulkan san’atokor adiblarning bebaho asarlari ta’siridan kitobxon ahlining qalbi larzaga keladi, sehrlanadi, zavq-shavqqa to‘ladi. Haqiqiy badiiy asarlarning kuchi ko‘ngilga beso‘roq kirib borib, o‘zgacha bir harorat va yorug‘lik paydo qiladi. Natijada kitobxonning ichida obrazlar yoki voqelik mohiyati bilan g‘oyibona muloqotlar, bahs-tortishuvlar boshlanadi. Adib va uni anglash, asarlari ortidan kelgan bir olam go‘zal taassurotlarni bayon etish, tushuntirish baxti hammaga ham emas va bu ishni hamma ham eplay olmaydi. Professor Umarali Normatov butun ilmiy-ijodiy faoliyati davomida ana shunday saodatga erishgan insonlardan edi. Haqiqiy umrboqiy, yaxshi asarlar olimning ko‘ngil sirdoshiga va hayot yo‘lida yo‘ldoshiga aylandi. Bunday asarlarni tahlil va tadqiq qilishni maqsad deb bildi va maqsadi yo‘lida zahmat chekib bebaho asarlarni yosh avlod uchun meros qilib qoldirdi. Shunday asasrlardan biri munaqqidning “Tafakkur yog‘dusi” asari hisoblanadi. Asar adabiy-tanqidiy esselardan tashkil topgan. Bu maqolamizda shu asardan o‘rin olgan munaqqidning adabiyotshunos olim Ergash Ochilov bilan olib borgan suhbat haqida so‘z yuritishni maqsad qildik. Suhbat “Tanqid, munaqqid va hozirgi adabiy jarayon” deb nomlanadi.

Suhbat adabiy tanqid, adabiyot olamidagi tanqidchilar fikrlari, zamonaviy adabiyot olami va undagi ijodkorlar ijodi haqida olib boriladi. Suhbatni adabiyotshunos olim Ergash Ochilov suhbatdoshi teran fikrlashi, haqiqatni ochiq gapirishi bilan kitobxonlar ko‘nglidan joy olgan va

adabiyotimizda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan munaqqid olim Umarali Normatovni savollar o‘qiga tutish bilan boshlaydi. Suhbatdosh munaqqidni zamonaviy adabiyot haqidagi fikriga qiziqadi va bugungi kunda XIX asr rus tanqidchilari Belinskiy va Dobrolyubovdek keng bilimli, xassos va jasoratli tanqidchilar yo‘qligiga kuyinadi. Adabiyot tarixidan ma’lumki, istiqlol yillarida milliy adabiyot tarixi tadqiqi oldingi o‘ringa o‘tdi. O‘tgan asrning 90-yillari davomida faol fidoyi munaqqidlarimiz uchun joriy adabiy jarayondan ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotining mustabid adabiy siyosat tufayli toptalgan tarixini tiklash, qayta baholash, qatag‘on qilingan adiblar merosini xalqqa qaytarish muhimroq va zaruriyroq bo‘lib qoldi. Tanqidchilar bor e’tiborini va kuchini aynan tarixni tiklashga qaratdilar va bu borada yaratilgan tadqiqotlar tahsinga va etirofga loyiq bo‘ldi. Aytish joizki, Abdulla Qodiriy romanchiligi, Abdurauf Fitrat dramaturgiyasi, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon she’riyati, Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodi, G‘afur G‘ulom ijodi kabi bir qator adiblarimiz to‘g‘risida nodir tadqiqotlar maydonga keldi. Bu tadqiqotlar orqali yosh avlod milliy adabiyotimiz haqida qimmatli ma’lumotlardan boxabar bo‘ladi. Shu sababli hozirgi adabiy jarayonga e’tibor qaratish nisbatan sustlashib qolgan edi nazarimizda. Munaqqid aynan shunday deb hozirgi adabiy jarayonda ham tadqiqotlar olib borilayotgani, ammo, jarayon to‘liq jihatdan ochib berilganicha yo‘qligini ta’kidlab o‘tadi. Ergash Ochilov hozirgi adabiy jarayon olamida saviyasi past, sayoz, o‘quvchilarni ishi kabi sodda asarlar yaratilayotgani va buni bemalol nashrdan chiqib ommaga tortiq etilayotgani haqida fikr bildirib bu haqida munaqqidning o‘ylari bilan qiziqadi. Har qanday asar yaratishning o‘ziga xos talablari bor va asar albatta taqrizdan o‘tkazilishi lozimligi barchamizga ayon. Saviyasiz va sayoz asarlarning umri yashamasidanoq tugaydi. Asarlarni ayamasdan saralab, tahlil qilib, tanqid qilib unga haqqoniy baho berish va yondashish munaqqidning vazifasiga kiradi. Bu haqida munaqqid yuqoridaq kabi asarlar barcha zamonlarda yaratilganini va shu bilan bir qatorda hozirgi adabiy jarayonda dunyo yuzini ko‘rgan nodir asarlar N. Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, X.Do‘stmuhhammadning “Bozor”, Erkin A’zamning “Shoirning to‘yi”, U.Hamdamning “Muvozanat”, “Isyon va Itoat”, Salomat Vafoning “Tilsim saltanati” kabilarni faxr bilan tilga oladi. Shuni qo‘srimcha sifatida aytishimiz mumkinki biz o‘rganmoqchi bo‘lgan hozirgi adabiy jarayon to‘la ma’noda mustaqillik mevasidir.

G‘arb adabiyotining ilg‘or oqimlari bizning o‘zbek adabiyotimizga jadal ravishda kirib keldi. Xususan, Modernizm oqimida ijod qilishda ko‘pchilik ijodkorlar o‘z omadini sinab ko‘rdi. Suhbatdosh bu yo‘nalishdan ko‘ngli to‘limganligini Navoiy, Bobur, Cho‘lpon, Ogahiy, Abdulla Oripovlarning izidan ketayotgan, ularning ijoldiga munosib so‘z aytayotgan qalamkashlar kamligini bildirib o‘tadi. Bu yangi yo‘nalishda ijod qilayotgan ijodkorlardan birdanbiga ko‘p narsa kutish mantiqan to‘g‘ri bo‘lmasligini va bu oqimning kelajagi borligini, Xurshid Do‘stmuhammad, Bahrom Ro‘zimuhammad, Ulug‘bek Hamdam, Shermurod Subhon singari bu sohaning yetuk bilimdonlari, nazariyachilari, himoyachilari bor. Modernistik yo‘nalishda asar yaratish ijodkordan nozik did, sinchkovlik, yangicha yondashuv, keng dunyoqarash va fikrlash va yana bir qancha mezonlarni talab etadi. Ana shunday bir qator mezonlar asosida yaratilgan modernistic asarlar fikri ojizimizcha o‘z o‘quvchisini topadi. Suhbat ancha qizib keyingi masala davr sheriysi xususida ketadi. Sheriyat masalasi qadim davrlardanoq dolzarb va tanqidchilar muhokama markazida turuvchi nozik yo‘nalishlardan biri sanalib kelinmoqda.

Darhaqiqat sheriyat adabiyotning eng nafis, eng jozibali, kitobxon ahlini osmondag'i porloq oy kabi o'ziga maftun etib kelayotgan turidir. Davr sheriyati ko'ngil sheriyatni bahonasida o'ta intimlashib ketganini va sheriyatda mayda-chuyda mavzularga keng e'tibor berilayotganini va bu qanchalik to'g'riligini munaqqid nazdida qandayligiga qiziqsan suhbatdosh yana sherigini so'roqqa tutadi. Munaqqid esa davr she'riyati nihoyatda ko'pqirrali, xilma-xilligi va jadal suratlarda oldinlab borayotgani hech kimga sir emasligini va bu borada ham sezilarli ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlaydi. She'rga, shoirlarga ehtiyoj hamisha mavjud bo'lib kelgan.

Davr poeziyasida hech narsa chetda qolmadidi. Hayotdagi eng ko'rimsiz, eng tuban,xatto, eng jirkanch bo'lган narsa va tushunchalarga ham shoirlar murojat qila boshladilar. Amerikalik shoirlar Allen Ginzberg, Charlz Bukovskiy singari XX asr dongdor shoirlari ijodida boshlangan yuqoridagi masala keyinchalik butun dunyo poeziyasida ham ko'rina boshladidi. Suhbat oxirlab borayotganida yanada suhbatga jon kiritgan savol o'rtaga tashlanadi. Bu savol ko'p davrlardan beri olimlar bahs-munozaralarining diqqat markazida bo'lib kelayotgan masalalardan biridir.

Adabiyot va siyosat masalasi hamisha bahs-munozaralarga sabab bo'lib keladi – bir guruh adabiyot siyosatga xizmat qilishi kerak, degan nuqtai nazarni himoya qilsa, ikkinchisi, aksincha, siyosatning adabiyotga aralashmasligi tarafdoi. Haqiqiy san'at asarini yombiga o'xshatgan munaqqid bu yombi yorug' dunyoning barcha tovlanishlarini o'zida aks ettirmog'i lozimligini ta'kidlaydi. Gapining isboti sifatida "O'tkan kunlar"ni misol qilib, asarda yozuvchi ishqiy munosabatlar, qahramonlarning ichki dunyosi, oila masalasi, to'y, a'za, dalalardagi kichik suhbatlardan tortib, davr ijtimoiy-siyosiy ahvolini ham yoritib ketadi. Cho'lpon ijodi aynan shu ikkala narsani o'zida jam etgan san'at darajasiga ko'tarilgan ijod ekanligidan barchamiz xabardormiz. Bu ishni munosib davom ettirayotgan ijodkorlar va epolmayotgan ijodkarlar ham yetarli. Barchasi iste'dod va mahoratga bog'liq. Suhbatda yana bir savol o'rtaga tashlanadi.

Ko'ngil sher'riyati qalb kechinmalarini tadqiq etishga yo'naltirilgan asarlar kishilarni buyuk ishlar sari ruhlantirish o'rniga, o'z ichki olamiga chekinib yashashaga da'vat qilmayaptimikan, deya xavotirlana so'roqqa tutadi suhbatdoshini. Munaqqid suhbatdoshining bu fikriga qo'shilmasligini hozirgi adabiy jarayonda ham xalq dardini yelkasiga ortgan, boshqalarga namuna bo'la oladigan qahramonlar yaratilayotganinini bir qancha dalillar bilan keltirib o'tadi.

Xususan, "Xotiram siniqlari" dostoni qahramoni – o'zining uzoq yillik murakkab hayot yo'lini shafqatsizlarcha taftish etib, Alloh oldida asl dil rozlarini to'kib solgan, istiqlol g'oyalariga sodiq, o'zi pok-u dili pok fidoyi mardona shaxs zamondoshlarimiz uchun ibrat emasmi?! «Bozor» romanidagi Fozilbek, Qadriya, «Muvozanat»dagi Yusuf, "Isyon va itoat"dagi Tabib qismati va ruhiyatidagi jamiki ojiz, ziddiyatli jihatlarga qaramay, ayni el-yurt manfaati uchun jonini tikkan, xalqning og'irini yelkasiga oladigan fidoyilar-ku axir!.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarda yaratilayotgan asarlarda ham Navoiy, Bobur, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari el-yurt dardini asarlarida jonlantirgan buyuk qalam ahliga munosib izdoshlar yetishib chiqdi va bu ishlar, albatta, davomli yo'ldan ketyapti. Shu bilan bu suhbatga yakun yasaladi. Suhbat adabiyotning barcha jahbalariga adabiyotshunos olim nazariy jihatdan, tanqidchi olim esa tanqidiy jihatdan o'z bahosini bergenligi bilan qimmatli sanaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi- T:Yangi asr avlodi,2005.
2. B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh Ahmedova. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi-  
T:Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2012.-420 b.
3. Y.Solijonov.Hozirgi adabiy jarayon-T:Innovatsiya-Ziyo,2020.-3 b.